

QADIMGI XORAZMDAGI DINIY MAROSIMLAR VA OSSUARIYLARNING TAVSIFI (SOGD, TOK KA'LA, MARG'YONA, GONNUR)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm va boshqa xududidagi eng qadimiy dafn marosimlari va an'analari bilan birga ossuariylarning tavsifi va farqlari taxlil qilinadi. Daxma va diniy marosimlarning Xorazm xududida paydo bo'lishi va ossuariylarning rivojlanish bosqichlari taxlil qilinadi. Xorazmdagi dafn qilish marosimlari eng qadimgi davrdan boshlangan bo'lib hozirgi davrga kelib uning ayrim elementlari saqlanib qolgan.

Kalit so'zlar: Krematsiya, Ingumatsiya, Zoomorf. Anropomorf.

ОПИСАНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ОБРЯДОВ И ОСУАРИЕВ В ДРЕВНЕМ ХОРЕЗМЕ (СОГД, ТОК-КАЛА, МАРГИЯНА, ГОННУР)

Аннотация. В статье анализируются описание и различия оссуариев, а также древнейшие погребальные обряды и традиции Хорезма и других регионов. Анализируются возникновение дахм и религиозных обрядов на территории Хорезма, а также этапы развития оссуариев. Похоронные обряды в Хорезме восходят к древнейшим временам, и некоторые их элементы сохранились до наших дней.

Ключевые слова: Кремация, Ингумификация, Зооморфный. Антропоморфный.

DESCRIPTION OF RELIGIOUS RITES AND OSSUARIES IN ANCIENT KHOREZM (SOGDIA, TOK-KALA, MARGIANA GONNUR)

Annotation. This article analyzes the descriptions and distinctions of ossuaries alongside the most ancient burial rites and traditions in the territory of Khorezm. It explores the emergence of dakhmas and religious rituals in the Khorezm region, as well as the evolutionary stages of ossuary development. Burial rites in Khorezm date back to ancient times, and certain elements of these practices have been preserved to the present day.

Keywords: Cremation, Inhumation, Zoomorphic, Anthropomorphic.

Diniy urf-odatlar insonlarning tabiat, hayot va o'lim haqidagi dastlabki tasavvurlari, jamoaviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan (jismoniy mehnat turlari, o'lim xavotiri), keyinchalik esa eski marosimlar (masalan, dafn) din bilan bog'lanib, diniylashtirilgan. Qadimgi Xorazmda dafn odatlari eng qadimgi davrga borib taqaladi. Bronza davri manzilgohlar (Tozabagyab, Amirobod, Ko'kcha, Angqa qa'la) kabi manzilgohlar sovet arxeologlari tomonidan o'rganilgan. Xorazmda bronza davri qabrlarida yonida idishlar qo'yilgan. Bu davrda axoli o'rtasida o'liklarga xurmat sifatida narigi dunyoda ovqatlanib yurishi uchun idishlarda suv va sutli maxsulotlarni solib qo'yishgan. Arxeologlar tomonidan qabristonlarni qazib o'rganishgan va yuzga yaqin go'rlar topilib, unda dafn qilingan jasadlarning boshlari g'arbga qaratib yotqizilganligi aniqlangan. Ular yakka yakka va juft juft qilib qo'milgan. Tekshirilgan qabrlarda juda ko'p naqshli sopol idishlar, bronzadan yasalgan bilaguzuklar, bigizlar o'q yoy uchlari topilgan. Insonlarni g'arbga tomon qilib ko'milishi bu kuyosh kulti bilan bog'liq bo'lsa kerak. Chunki quyoshning sharqdan chiqib g'arbga qarab botishi bu insonni xam umri tugaganligi bilan bog'liq degan fikrga kelamiz. Insoniyat rivojlanishi bilan birga diniy qarashlar ham o'zgara bordi. Bronza davrining keyingi bosqichlariga kelib dafn marosimlari o'zgara bordi bu zardushtiylik diniy qarashlari bilan bog'liq urf odatlar edi. Bu davrda suyaklarni ostadonlarga qo'yish odat tusiga kira bordi. Shunday ossuariylarni biz Toq

30 qa'la nekropolidan topilgan ostadonlar misolida ko'rib chiqamiz. Bu yerdagi ostadonlarda oy, quyosh va yulduzlarning tasvirlari tushirilgan. Ushbu rasmlardagi oy qizil va kora rang bilan



ifodalangan. Bunday ranglar ham biror bir axamiyatga ega bo'lgan. Qora rang insonni yorug' olamni tark etib o'zga dunyoga ketishini bildirgan.

1-rasm.

Oylar va yulduzlar esa insonni narigi dunyoga bir nechta yo'llarni bosib o'tib jannatga o'tishini bildiradi. A.V. Gudkova va V.I. Livshislarning fikriga ko'ra ostadonlardagi sanalar eramizning 750 va 775 yillarga to'g'ri keladi. Sanalardan tashqari zardushtiylik dinidagi oylar nomlari keltiriladi. Shuningdek jannat va do'zzax haqida fikrlar keltirilgan.


Eng ko'p miqdori So'g'ddan topilgan bo'lib, u yerdagi ko'plab qutisimon ossuariylar (lahaddonlar) boy va xilma-xil bezaklari bilan ajralib turadi; bu bezaklar ko'pincha idishning butun tashqi yuzasini qoplab olgan. Naqshlarda kech ellinistik, yahudiy va nasroniy motivlari kuzatiladi; shuningdek, zardushtiylik ramzlari ham uchraydi: masalan, ossuariylardan birining devorida baland yonib turgan qurbongoh va uning ikki tomonida yuzlari bog'ich (niqob) bilan yopilgan kohinlar tasvirlangan. Markaziy Osiyoning eng ko'plab topilgan ossuariylar bu Qadimgi So'g'd xududi hisoblangan. So'g'd qutisimon ossuariylarining alohida bir guruhi to'rt nishabli qopqoqqa ega bo'lib, ular antropomorf (odamsimon) yoki zoomorf (hayvonsimon) tasvirlar bilan bezalgan; devorlari va qopqog'i to'liq arkada (ravoqlar qatori) bilan qoplangan bo'lib, ravoqlar oralig'ida marosim buyumlarini tutgan erkak va ayollarning qiyofalari joylashtirilgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bular So'g'd panteoni xudolarining siymolari bo'lib, ehtimol, ularni Avestodagi «muqaddas o'lmas zotlar» — Amesha-Spentalar bilan qiyoslash mumkin. So'g'd ossuariylaridagi tasvirlar, katta ehtimol bilan, yog'och matritsa (qolip) yordamida nam loyga bosib tushirilgan». Mulla qo'rg'ondan topilgan VII–VIII asrlarga oid ossuariy piramidasimon qopqoqqa ega bo'lib, unda Quyosh va Oy ostida turgan va ikki tomonda novdalar tutib turgan juftlik tasvirlangan. Ossuariy korpusining (asosiy qismining) har bir tomonida esa ruhoniy qiyofasi aks ettirilgan. Qopqoqdagi tasvirlar raqs tushayotgan holatda bo'lishi mumkin, bu esa «musiq va qo'shiqlar makoni bo'lmish jannat rohat-farog'atlariga» ishora qiladi».



2-rasm. Mulla qo'rg'ondan topilgan ossuariy. So'g'd.

Eng qadimgi ossuariylar qadimgi Marg'iyona arxeologik yodgorligidan ko'plab topilgan. Margiyonaliklar o'rtasida Yer Kulti bo'yicha ko'plab guvohliklar saqlanib qolgan, shuning uchun uning mavjudligida shubha qilish mumkin emas. Gonurda olib borilgan qazishmalardan olingan materiallar margushlar, xususan, zardushtiyalar uchun Yerning muqaddas yoki "tozalik stixiyasi" sifatida qaralganini ko'rsatadi. Yerni har qanday narsa, birinchi navbatda, "xasharot" bo'lgan zaiflashgan tana bilan kiritish mumkin emas edi. Bu, avvalo, dafn marosimining xususiyatlari bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lumki, qadimgi xindieronlar avval jasadni poklab so'ng yerga dafn

qilgan, lekin keyinchalik xinderoniylar orasida dafn marosimi krematsiya (jasadni kuydirish) bilan almashtirilgan, iron ariylari o'rtasida esa jasad cho'lga yotqizilagan keyn ovchi qushlarga (griflarga) va maxsus o'rgatilgan itlarga jasadni berishgan. Qadimgi Marg'iyona xududidan topilgan ossuariylar birmuncha boshqacha ko'rinishga ega bo'lgan. Ushbu (3-rasm) dagi ossuariga e'tibor beradigan bo'lsak ularning tuzilishi maqbaraga o'xshab ketadi. Aslzoda insonlarni minorasimon ostadonlarda suyaklarini saqlashgan. Gonur tepa yodgorligidan topilgan ossuariylarning ichida inson suyaklari bilan qo'chqorning suklari xam mavjud. Inson vafotidan so'ng uning haqqiga qurbonlik keltirish marosimlari xam shakillana borgan.



3-rasm.

Barcha dafn inshootlari insoniyatning ba'diy maxsulot xisoblanadi. Ba'diy madaniyat bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Chunki insoniyat tomonidan olamni anglash va fikr qilish orqali xar xil ossuariylarni ishlab chiqishgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ossuariylarning ornamental kompozitsiya motivlari, ularning kelib chiqish manbalari va talqini — ko'p yillik munozaralar mavzusi bo'lib, unda masalaning o'sha davrdagi o'rganilish darajasi, tadqiqotchilarning turlicha yondashuvlari, ularning ustuvorliklari va hatto masalaning siyosiy tekislikka ko'chirilishi o'z aksini topgan. Shunday qilib, eng keskin qarashlardan biriga ko'ra, so'g'd ossuariylarining barcha bezaklari uchta kompozitsion sxemaga borib taqaladi (markazida tabaqalari xiyol ochilgan eshik bo'lgan arkada; ichiga kalla tasvirlari joylashtirilgan girlyandalar; korpusning butun devorini egallagan ikki-to'rtta ko'p bargli rozetkalar ya'ni gulsimon naqshlar). Ular O'rta Yer dengizi havzasidan kelib chiqqan bo'lib, so'nggi imperiya davridagi Rim sarkofaglari va yahudiy ossuariylari bezaklarini bevosita takrorlaydi. So'g'd hududiga ular IV-V asrlarda Kichik Osiyo va Erondagi ta'qiblardan qochgan yahudiylar va nasroniylar bilan birga kirib kelgan. Ushbu barcha so'nggi ellinistik, yahudiy va nasroniylik motivlari mahalliy didga moslashtirilib, yangi kompozitsiyalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ikkinchi xulosani qiladigan bo'lsak Xorazm ossuariylarida xayvon tasvirlari va xaykalsimon ostadonlari ko'plab uchraydi. Oy yulduz quyosh osmon tasvirlari ko'pchilik xorazm ostadonlarida uchraydi. So'g'd ossuariylarida esa dafn marosimi va vafot etgan insonni kuzatish va yana qayta tirilish marosimi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta.- M.:1962. – S.46.
- 2 Jabborov I. Ko'hna xarobalar siri. - .T.: 1968. – S.76
- 3 Rapoport Yu A. Iz istorii religii drevnego Xorezma//TrXAEE.- M., T.VI.- C106. Ris.51
- 4 Livshis V.A. Xorezmskiy kalendar i erty drevnego Xorezma //Palestinskiy sbornik.- L.- 1970 Vyp 21(84) - S.4.
- 5 Sarianidi V. Zadolgo do Zaratushtry .-M.:2010. -S.46
- 6 Yakovlev Ye.G. problema vzaimodeystviya iskusstva i religii v sovremennoy estetike.- M.:1972g. Vyp.7 –S.7
- 7 Iskanderova A. Religii Sentralnoy Azii i Azerbaydjana//Uzbekistan.Zorastrizm i verovaniya mazdeinskogo kruga. – C.,2017g T. II – C. 262